

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/03.06.2023.Yu.22.04 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

RAHMONOV JALOLIDDIN AKMALOVICH

**XALQARO HUQUQDA INVESTORLARNING HUQUQ VA
MAJBURIYATLARINI TA'MINLASH: DOLZARB MUAMMOLAR VA
RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI**

12.00.10 - Xalqaro huquq

**Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Rahmonov Jaloliddin Akmalovich

Xalqaro huquqda investorlarning huquq va majburiyatlarini ta'minlash: dolzarb muammolar va rivojlanish istiqbollari.....3

Rakhmonov Jaloliddin Akmalovich

Ensuring the rights and obligations of investors in international law: current problems and development prospects.....23

Рахмонов Жалолиддин Акмалович

Обеспечение прав и обязанностей инвесторов в международном праве: актуальные проблемы и перспективы развития.....41

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

List of published works

Список опубликованных работ.....45

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/03.06.2023.Yu.22.04 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

RAHMONOV JALOLIDDIN AKMALOVICH

**XALQARO HUQUQDA INVESTORLARNING HUQUQ VA
MAJBURIYATLARINI TA'MINLASH: DOLZARB MUAMMOLAR VA
RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI**

12.00.10 - Xalqaro huquq

**Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2023.3.PhD/Yu1201 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar>) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ismailova Gulnoza Saydig'anixo'jayevna
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Umarxanova Dildora Sharipxanovna
yuridik fanlar doktori, professor

Yakubxo'jayev Umid Anvarxo'jayevich
yuridik fanlar doktori

Yetakchi tashkilot:

**O'zbekiston Respublikasi Huquqni
muhofaza qilish akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/03.06.2023. Yu.22.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 19-iyun soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36 faks: (99871) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1399-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Amir Temur ko'chasi, 13. Tel.: (99871) 233-66-36)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 4-iyun kuni tarqatildi.

(2025-yil 4-iyun 8-raqamli reestr bayonnomasi)



S.S.Gulyamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
yuridik fanlar doktori, professor

Sh.N.Raxmanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,
yuridik fanlar nomzodi, dotsent

D.N.Mahkamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar
doktori, professor

KIRISH (yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda globalizatsiya va integratsiya jarayonlari tobora jadallashib borayotgan bugungi dunyoda, ayniqsa, 2023-yilda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning global oqimi taxminan 1,37 trillion AQSH dollarini tashkil qilganini hisobga olsak, xalqaro huquqda investorlarning huquq va majburiyatlarini ta'minlash masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda investorlar turli xavf-xatarlarga, jumladan, siyosiy beqarorlik, natsionalizatsiya (xususiy mulkni davlat mulkiga aylantirish), qonunchilikdagi o'zgarishlar va boshqa ko'zda tutilmagan holatlar kabi turli xavf-xatarlarga duch kelishi mumkin. Investorlarni samarali jalb etish va saqlab qolish uchun davlatlar o'z suverenitetini saqlagan holda ularning manfaatlari bilan birga, jamiyat manfaatlarini ham himoya qilish imkonini beruvchi barqaror huquqiy mexanizmlarni yaratishi zarur. Xalqaro ommaviy huquq universal xususiyatga ega bo'lgan ixtisoslashtirilgan xalqaro tashkilotlar doirasida muvofiqlashtiruvchi rol ni bajaradi. Bu rol ahdlashuvchi davlatlarning chet el investitsiyalariga nisbatan investitsion siyosatni olib borishdagi yurisdiksiyalarini kelishib olishda va siyosiy xatarlar yuzaga kelgan taqdirda o'zaro kafolatlarni taqdim etishda aks etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2024-yil 2-may kuni bo'lib o'tgan III Toshkent xalqaro investitsion forumida so'zlagan nutqida mamlakatimizda investorlarning huquqlarini himoya qilishni kuchaytirishga qaratilgan asosiy chora-tadbirlarni belgilab berdi. Ular qatoriga Jahon savdo tashkiloti (JST) standartlariga javob beradigan yangi tahrirdagi "Investitsiyalar to'g'risida"gi qonunni qabul qilish, xalqaro tijorat sudini yo'lga qo'yish, shuningdek, xorijiy investorlar uchun yer ijarasi muddatini ikki barobar uzaytirish kiradi¹. Shuningdek, so'nggi yillarda yurtimizda 60 milliard AQSH dollaridan ortiq xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilgani ta'kidlandi. Xalqaro moliya institutlaridan ijtimoiy soha va infratuzilmaga 14 milliard dollardan ortiq mablag' jalb etildi. Faqat o'tgan yilning o'zida xorijiy investitsiyalar hajmi deyarli ikki baravarga oshdi². Ushbu bayonot O'zbekiston Respublikasining xorijiy investitsiyalarni jalb etishga ko'maklashuvchi qulay investitsion va ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga intilishini ta'kidlaydi. Bu chora-tadbirlar mamlakatni rivojlantirishning strategik yo'nalishini aks ettirib, investorlar uchun sharoitni yaxshilash hamda ularning huquq va majburiyatlarini yanada ishonchli ta'minlashga qaratilgan.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti ma'lum darajada Davlatlar va xorijiy shaxslar o'rtasidagi investitsion nizolarni hal qilish tartibi to'g'risidagi Vashington konvensiyasi, Investitsiyalarning ko'p tomonlama taqsimlanishini kafolatlovchi agentlikni tashkil etish to'g'risidagi Seul konvensiyasida, O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi (2018-yilgi), O'zbekiston Respublikasining 2020-yildagi "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati

¹ Мухамеджанов О., Надежный и долгосрочный партнер для иностранных инвесторов. Правда Востока, 2024 г.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumidagi nutqi. // O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti [elektron resurs]. – URL: <https://president.uz/ru/lists/view/7194>.

to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-sonli Farmoni va sohadagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya ishi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonning II bo'limida ko'rsatilganidek, mamlakatimizda fan va texnologiyalarni rivojlantirishni nazarda tutuvchi, adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning asosiy va zaruriy sharti sifatida belgilovchi ustuvor yo'nalishiga asoslanadi. Bu xalqaro ommaviy huquqda investorlarning huquq va majburiyatlarini himoya qilish masalalarini yanada batafsilroq tahlil qilish, shuningdek, ularni yaxshilash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish zaruratini ta'kidlaydi. Ushbu tadqiqotning ahamiyati va istiqbollari hisobga olsak, uni amalga oshirish yangi ilmiy natijalarga erishishga olib borishi mumkin. Xalqaro ommaviy huquq mexanizmlarini chuqur tahlil qilish ushbu yo'nalishdagi zaif jihatlarni aniqlash va takomillashtirishga, jumladan, qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish, huquqni qo'llash amaliyotini yaxshilash va xorijiy investorlar uchun huquqiy himoyani kuchaytirishga xizmat qiladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Investorlar huquq va majburiyatlari kafolatlarining umumiy masalalarini tadqiq etish mavzusi Sh.A. Axunov³, D. Kimsanov, O. Muhammadjonov, I.I. Rustambekov⁴, L.I. Achilova⁵, B. Rahimov⁶, B. Muminov⁷, B.E. Ochilov⁸, X.T. Odilqoriyev, R.T. Hakimov⁹, I.N.R. Inog'omova, B.B. Samarxo'jayev kabi mamlakatimiz olimlari tomonidan o'rganilgan.

Shuningdek, xorijiy ilmiy adabiyotlarda biz tadqiq etayotgan muammoning ayrim jihatlari bo'yicha A.Z. Ayupov¹⁰, G.M. Velyaminov, L.I. Volov, A.A. Danelyan¹¹, G.K. Dmitriyev¹², N.G. Doronina¹³, B.M. Klimenko, S.I. Krupko, G.M.

³ Axunov Sh.A., Davlatlar ishtirokidagi investitsion nizolarni xalqaro-huquqiy hal qilish vositalari. Yur. f. b. fals. dokt. ... dis. Toshkent, 2023-y.

⁴ Рустамбеков И., Кимсанов Д., Правовые реформы в сфере улучшения инвестиционного климата Узбекистана // Оценка инвестиций. 2019. № 1 (13).

⁵ Ачилова Л. И., Инвестиционное право. Учебное пособие. – Т.: издательство ТГЮУ, 2021. – 172 с.

⁶ Рахимов Б., (2020). Новые законодательные нормы разрешения инвестиционных споров в Республике Узбекистан. Обзор законодательства Узбекистана, (3).

⁷ Muminov B., Latest Amendments in the Foreign Investment Laws of Uzbekistan: Manifestation of Serious Ambitions for Change?, 4(1) RLJ (2016).

⁸ Очиллов Б. Э., Генезис и перспективы развития суверенитета и международной правосубъектности Республики Узбекистан (теоретико-прикладной анализ).

⁹ Хакимов Р. Т., Умаррахунов И. М., Международно-договорные инициативы Республики Узбекистан. Московский журнал международного права. 2001; (2): С. 252–275.

¹⁰ Аюпов А.З., Международно-правовое и внутригосударственное регулирование иностранных инвестиций. Дис. ... канд. юрид. н. Москва, 2008 г.

¹¹ Дanelьян А.А., Международно-правовой режим иностранных инвестиций. Дис. ... докт. юрид. н. – М., 2016.

¹² Дмитриева Г.К., Викторова Н.Н., Суверенитет государства в контексте привлечения иностранных инвестиций // Актуальные проблемы российского права. 2018. № 12 (97).

¹³ Доронина Н.Г., Многосторонние международные договоры и российское законодательство об инвестициях // Журнал российского права. – 2002. – № 11.

Kostyunina¹⁴, K.E. Ksenofontov, D.B. Levin, I.I. Lukashuk¹⁵, D.A. Lukichev, F.F. Martens, N.P. Matulis, I.E. Papushina, L. Piskun, E.V. Popov, P.O. Protopopova, I.V. Rachkov¹⁶, A.M. Sayenko¹⁷, A.Y. Suxarev, K. Tayvuk, V.A. Trapeznikov, M.Y. Tulayeva, A.Z. Farxutdinov¹⁸, M.A. Sirina¹⁹, S.V. Chernichenko²⁰, V.M. Shumilov, I.Y. Shomurodov²¹, D.V. Yulov²² va boshqalarning ishlarini alohida ko'rsatib o'tish mumkin.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlar rejasi doirasida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi global miqyosda investorlar manfaatlarini himoya qilishning huquqiy mexanizmlarini rivojlantirish bo'yicha mavjud muammolar va istiqbolli yo'nalishlarni aniqlashni, shuningdek, ushbu sohadagi qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotining samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar va tavsiyalar ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Tadqiqotning vazifalari:

xalqaro investitsiya huquqining xalqaro huquq tizimidagi o'rni va ahamiyatini o'rganish;

xalqaro investitsiya bitimlari subyektlarini tahlil qilish;

xalqaro investitsion munosabatlarda davlatlarning huquqiy subyektligi, huquqiy layoqati va yuridik salohiyati kabi tushunchalarni farqlash;

davlat suvereniteti masalalarini investorlarning huquq va majburiyatlarini himoya qilish kontekstida o'rganish;

xalqaro sud organlari va arbitrajlarda xalqaro investitsiya munosabatlari subyektlarining manfaatlarini ta'minlash masalalarini tadqiq qilish;

investitsiya nizolarini hal qilishda davlatlarning ishtirokiga oid xalqaro-huquqiy masalalarni o'rganish;

investitsiyalar bo'yicha ikki tomonlama va ko'p tomonlama bitimlarning rivojlanishini o'rganish;

xalqaro investitsiya munosabatlarida subyektlarning manfaatlari muvozanatini ta'minlovchi huquqiy mexanizmlarni takomillashtirishni tahlil qilish;

¹⁴ Костюнина Г. М., Ливенцев Н. Н., Международная практика регулирования иностранных инвестиций. Учебное пособие — М.: Анкил. 2001.

¹⁵ Лукашук И. И., Глобализация, государство, право XXI век. М.: Спарк, 2000.

¹⁶ Рачков И. В., Согласие государства на рассмотрение международных инвестиционных споров. // Международное правосудие. 2014. № 4 (12).

¹⁷ Саенко А. М., Соотношение международного и внутреннего права в инвестиционной сфере в контексте глобализации (проблемы теории и практики). Дис. ... канд. юрид. н. Москва, 2007.

¹⁸ Фархутдинов И. З., Международно-правовое регулирование инвестиционных отношений: теория и практика. Дис. ... докт. юрид. н. — М., 2006.

¹⁹ Цирина М. А., Особенности разрешения инвестиционных споров. // Вестник Волгоградской академии МВД России. 2016. № 4 (39).

²⁰ Международное право / под ред. А.А. Ковалева, С. В. Черниченко. М., 2008.

²¹ Шомуродов И. Ю., Международно-правовое сотрудничество государств в сфере разрешения инвестиционных споров. Дис. ... канд. юрид. н. — М., 2011.

²² Юлов Д. В., Взаимодействие национально-правового и международно-правового регулирования правовых гарантий иностранных инвесторов. // Журнал российского права. 2021. № 4.

investorlarning huquq va majburiyatlarini himoya qilishni takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti – investorlarning huquq va majburiyatlarini himoya qilish bilan bog‘liq xalqaro huquqiy munosabatlar majmui.

Tadqiqot predmeti – investorlarning huquq va majburiyatlarini tartibga soluvchi normalar, ilmiy-nazariy jihatlar hamda ushbu sohadagi huquqni qo‘llash amaliyoti bilan bog‘liq dolzarb muammolar.

Tadqiqot usullari. Belgilangan maqsadga erishish va qo‘yilgan vazifalarni hal qilish uchun tarixiy-huquqiy, tahlil va sintez, qiyosiy-huquqiy, tizimli-tuzilmaviy tahlil, yuridik adabiyotlar va normativ hujjatlarni o‘rganish, huquqni qo‘llash amaliyotini umumlashtirish va tahlil qilish usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiliklari quyidagilardan iborat:

Investitsiya loyihalarida ijtimoiy mas‘uliyat va barqaror rivojlanish tamoyillariga rioya qilish lozimligi, bu esa ularning atrof-muhit va jamiyatga salbiy ta‘sirini kamaytirishga yordam berishi asoslantirilgan;

yanada qulay qonunchilik va investitsiya muhitini yaratish orqali rivojlanayotgan mamlakatlarni barqaror rivojlanishga yo‘naltirilgan investitsiyalarini ko‘paytirishda qo‘llab-quvvatlash kerakligi asoslantirilgan;

rivojlanayotgan mamlakatlarda ilm-fan, texnika va innovatsiyalarga investitsiyalarni jalb etish hamda qo‘llab-quvvatlash orqali hamkorlikni chuqurlashtirish, shuningdek, investitsiyalar va tadbirkorlikni rag‘batlantirish, mahalliy innovatsion ekotizimlarni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishi lozimligi asoslantirilgan;

O‘zbekiston milliy qonunchiligi va xalqaro huquq o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlaydigan xorijiy investitsiya faoliyatini tartibga solishga kompleks huquqiy yondashuvni belgilash, milliy qonunchilik normalariga rioya qilish, ularni xalqaro majburiyatlar bilan uyg‘unlashtirish va investitsiya faoliyati ishtirokchilari uchun huquqiy muammolarni minimallashtirishga huquqiy asos yaratishni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilash zarurati asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

davlatlarning ushbu jarayondagi huquqiy subyektligi hamda ishtirokining huquqiy tabiati asosli ravishda yoritib berildi. Investorlarning huquqlarini tartibga soluvchi asosiy tushunchalar va normativ hujjatlar ko‘rib chiqilib, davlatlarning xalqaro investitsiya munosabatlarida o‘z majburiyatlari va huquqlarini amalga oshirish mexanizmlari tahlil qilindi;

investorlarning huquq va majburiyatlarini ta‘minlashda davlat suvereniteti bilan bog‘liq muammolar milliy manfaatlar va xalqaro majburiyatlar o‘rtasidagi ziddiyat tufayli yuzaga kelishi asoslab berildi. Suverenitet davlatlarga ichki siyosatni yuritish va qonunchilikda o‘zgarishlar qilish yoki natsionalizatsiya kabi investitsiyalarga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi hamda investorlarning huquqlarini buzishi mumkin bo‘lgan qarorlarni qabul qilish imkonini beradi. Davlatning ichki o‘zgarishlar qilish huquqi va uning investitsiyalarni himoya qilish bo‘yicha xalqaro majburiyatlari o‘rtasidagi muvozanatni topish muhimdir;

xalqaro sud organlari va arbitrajlarida xalqaro investitsiya munosabatlari subyektlarining manfaatlarini ta‘minlash alohida yondashuvni talab qilishi

asoslandi. Tadqiqotda bunday nizolarni muayyan siyosiy va huquqiy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda hal etishning samarali mexanizmlarini yaratish zarurligi aniqlandi. Nizolarni hal qilishning xalqaro va milliy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi;

investitsiya nizolarini hal qilishda davlatlar ishtiroki bilan bog'liq xalqaro huquqiy muammolar, jumladan, ularning ishtiroki hamda turli sud va arbitraj organlari bilan o'zaro munosabatlarining huquqiy tabiati asoslab berildi. Tadqiqotda xalqaro mexanizmlarda yetishmayotgan muvofiqlashtirish va huquqiy bo'shliqlar masalalari aniqlanib, nizolarni hal qilish samaradorligi hamda adolatlilikini oshirish bo'yicha yechimlar taklif etildi;

ikki tomonlama va ko'p tomonlama investitsiya shartnomalarining huquqiy tahlili o'tkazildi. Investitsiyalarni himoya qilish mexanizmlari, qabul qiluvchi davlatlarning majburiyatlari va investorlarning huquqlari, shuningdek, nizolarni hal etish tartibi ko'rib chiqildi. Investitsiya muhitining barqarorligi va bashoratlilikini ta'minlaydigan huquqiy vositalarga, shuningdek, xalqaro standartlarning investitsiya munosabatlarini tartibga solishning ta'siriga alohida e'tibor qaratildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tegishli ilmiy metodlar, nazariy yondashuvlarning qo'llanilishi, xalqaro tajriba va milliy qonunchilik o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tahlil qilish, shuningdek, olingan xulosalar, takliflar va tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etish orqali ta'minlanadi. Bu tadqiqot natijalarining ilmiy nashrlarda chop etilgani, vakolatli organlar tomonidan ma'qullangani va amaliyotda qo'llangani bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati. Investorlarning huquq va majburiyatlarini ta'minlash, uning xalqaro huquqdagi o'rni va mamlakatni rivojlantirishga ta'siri masalasi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Bu talabalar va tadqiqotchilarning bilim va ko'nikmalari ortishida namoyon bo'ladi, ular o'quv jarayoniga muvaffaqiyatli kiritilishi va sohada yangi ilmiy izlanishlar olib borishda foydalanilishi mumkin. Tadqiqot natijasida investorlar va davlatlar xalqaro huquq sohasida duch kelayotgan muammolar hamda xatarlarni chuqur tahlil qilib ko'rishni taklif etib, bu masalalarni tushungan holda hal etishga katta hissa qo'shadi.

Bundan tashqari, tadqiqot natijalaridan ushbu sohadagi dolzarb ilmiy muammolarni tahlil qilishda, shuningdek, investitsiya muhitini yaxshilash hamda investorlar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan tavsiyalar va amaliy yechimlar ishlab chiqishda samarali foydalanish mumkin. Ushbu natijalarni xalqaro ommaviy huquq, xalqaro investitsiya huquqi, xalqaro iqtisodiy huquq kabi fanlarni o'qitishda qo'llash mumkin. Ular ma'ruza materiallari, o'quv qo'llanmalari va kurs dasturlarini yaratish uchun asos bo'lib xizmat qilishi, shuningdek, ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlashi mumkin. Bundan tashqari, tadqiqot fuqarolar o'rtasida huquqiy ong va madaniyatni oshirishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot natijalaridan quyidagilarda foydalanilgan:

ijtimoiy mas'uliyat va barqaror rivojlanish standartlariga rioya qilish to'g'risidagi taklif BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2024-yil 22-sentabrda qabul qilingan Kelajak uchun paktning 58-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasining Birlashgan Millatlar Tashkiloti huzuridagi Doimiy

vakolatxonasining 2024-yil 7-noyabrdagi dalolatnomasi). Ijtimoiy mas'uliyat va barqaror rivojlanish tamoyillarini joriy etish investitsiya loyihalarining atrof-muhitga va jamiyatga ko'rsatadigan salbiy ta'sirini kamaytirishga yordam bergan. Bu ham investorlar, ham qabul qiluvchi davlatlar uchun uzoq muddatli manfaatlar asosini yaratishga xizmat qilgan;

barqaror rivojlanishda investitsiyalarni oshirishni rag'batlantirish borasida rivojlanayotgan mamlakatlarni, jumladan, yanada qulay normativ-huquqiy va investitsiya muhitini yaratish orqali qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi taklif BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2024-yil 22-sentabrda qabul qilingan Kelajak uchun paktning 4-harakatidagi (k) bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasining Birlashgan Millatlar Tashkiloti huzuridagi Doimiy vakolatxonasining 2024-yil 7-noyabrdagi dalolatnomasi). Bu rivojlanayotgan davlatlar, xalqaro tashkilotlar, moliyaviy institutlar va rivojlangan davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlashga turtki berib, tajriba almashish, moliyaviy ko'mak hamda texnik yordam ko'rsatishni osonlashtirishda xizmat qilgan;

rivojlanayotgan mamlakatlarda ilm-fan, texnika va innovatsiyalarga investitsiyalarni jalb etish va qo'llab-quvvatlash, shuningdek, investitsiyalar va tadbirkorlikka, mahalliy innovatsion ekotizimlarni rivojlantirishga ko'maklashuvchi qulay shart-sharoitlarni yaratish orqali hamkorlikni chuqurlashtirish bo'yicha taklif 2024-yil 22-sentabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Kelajak uchun paktning 29-harakati (f) bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasining Birlashgan Millatlar Tashkiloti huzuridagi Doimiy vakolatxonasining 2024-yil 7-noyabrdagi dalolatnomasi). Bu xorijiy investitsiyalarni himoya qilishga qaratilgan bitimlar tuzish orqali ko'p tomonlama va ikki tomonlama hamkorlikni kuchaytirish, davlatlarning innovatsiyalarni rag'batlantirish va investitsiya faoliyatini soddalashtirish majburiyatlarini o'z ichiga olgan maxsus bitimlarni ishlab chiqishga xizmat qilgan;

xorijiy davlatlar hududida investitsiyalarni yo'naltirishni tartibga solish ushbu qonunga, investitsiya faoliyati amalga oshirilayotgan davlatning qonunchiligiga va O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalariga muvofiq amalga oshirilishi to'g'risidagi taklif O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-598-sonli Qonuni 57-moddasining ikkinchi qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasining 2024-yil 15-oktabrdagi dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi milliy qonunchilik va xalqaro huquq o'rtasida muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi. Unga ko'ra, xorijiy davlatlarda investitsiya faoliyatini amalga oshirishda O'zbekiston milliy qonunchiligiga ham rioya qilish, shuningdek, xalqaro huquq va shartnomalar bilan uyg'unlikda ishlash talab etiladi.

Bu xalqaro hamjamiyatning ijtimoiy mas'uliyat va barqaror rivojlanish tamoyillariga sodiqligini ta'kidlab, investorlarning ishonchini mustahkamlash, investitsiyalar uchun barqaror sharoitlar yaratish va xalqaro hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha tashabbuslarni amalga oshirishiga asos bo'ldi.

Tadqiqot natijalari aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 2 ta xalqaro, 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyada muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy maqola (2 ta xorijiy jurnalda, jumladan, 1 ta ilmiy maqola "Scopus" va "Web of Science" ilmiy platforma bazalariga kiradigan jurnalda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 8 ta bo'limni o'z ichiga olgan uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 150 sahifani tashkil etadi, bu tadqiqotning nazariy va amaliy qismlarini o'z ichiga oladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining ish bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi yoritiladi. Shuningdek, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy etilishi hamda sinovdan o'tkazilishi, mavzu bo'yicha chop etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bayon qilinadi.

Dissertatsiyaning **"Xalqaro huquqda investorlarning huquq va majburiyatlarini ta'minlashning nazariy asoslari"** deb nomlangan birinchi bobi xalqaro huquqda investitsiya faoliyatini huquqiy tartibga solish masalalarining ilmiy-nazariy tahlilga bag'ishlangan bo'lib, keyingi boblarga asos yaratadi. Unda investorlarning huquq va majburiyatlarini belgilashga doir asosiy yondashuvlar ochib berilgan, xalqaro yuridik adabiyotlarda qo'llanadigan "xalqaro investitsiya huquqi", "chet el investitsiyalarining huquqiy rejimi", "xalqaro huquqda investorlarni himoya qilish" kabi asosiy tushunchalar o'rganilgan.

Muallifning fikricha, xalqaro investitsiya huquqi alohida huquqiy tizim bo'lmay, xalqaro ommaviy huquq bilan uzviy bog'liqdir. Bu, birinchidan, investitsiya huquqi normalari xalqaro huquqning umumiy tamoyillari asosida tartibga solinadigan xalqaro shartnomalarda o'z aksini topishida namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, xalqaro investitsiya huquqi inson huquqlari kabi soha bilan chambarchas bog'liqdir. Bundan tashqari, arbitraj jarayonlarining shaffofligi kabi institutsional o'zgarishlar xalqaro ommaviy huquqning investitsiya nizolariga ta'sirini ko'rsatmoqda.

A.G. Bogatiryov ham ushbu sohaning shakllanishi an'anaviy xalqaro huquqdan tortib zamonaviy investitsiya bitimlarigacha bo'lgan huquqiy normalar takomillashuvining uzoq davom etgan jarayoni natijasida yuz berganini ta'kidlaydi²³. Shunday qilib, xalqaro investitsiya huquqi mustaqil tizim emas, balki xalqaro huquqiy tartibot doirasida shakllanayotgan hamda jadal rivojlanayotgan sohani ifodalaydi.

²³ Богатырев А.Г. Инвестиционное право. Москва, 1992. С. 52–56.

Bundan tashqari, xalqaro investitsiya huquqi avtonom huquqiy tizim sifatida ikki asosiy qismdan iborat ekanligi tasdiqlanadi. Ularning birinchisi davlatlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo'lib, investitsiya bitimlarini tuzish va bajarish asoslarini belgilaydi. Bu qoidalar Xalqaro investitsiya nizolarini hal qilish markazi, UNSITRAL va boshqa arbitraj tuzilmalari kabi xalqaro institutlarning vakolatlarini belgilab, investitsiya nizolarini hal etishni ta'minlaydi. Ikkinchi tarkibiy qism esa investorlarning huquq va majburiyatlarini, chet el investitsiyalarini amalga oshirish shartlarini, investitsiyalarni himoya qilish mexanizmlarini, shuningdek, adolatli va teng huquqli rejim tamoyillarini o'z ichiga oladi. Xorijiy investitsiyalarni noqonuniy ekspropriatsiyadan himoya qilish, huquqiy rejim shaffofligini kafolatlash, halol munosabat va kamsitmaslik tamoyillari muhim unsurlar hisoblanadi. Huquqning bu qismi, shuningdek, investorlarning davlatlar bilan o'zaro munosabatlari shartlarini va ularning qabul qiluvchi tomon oldidagi javobgarligini ham belgilaydi.

Ushbu bobning "Xalqaro investitsiya munosabatlarida xalqaro huquqiy subyektlilik institutining rivojlanishi" deb nomlangan ikkinchi paragrafida xalqaro investitsiya munosabatlarida davlatlarning huquqiy subyektligi muhim rol o'ynashi haqida so'z yuritiladi. Bu subyektlilik davlatlarning investitsiya bitimlarini tuzish, chet el investorlari uchun huquqiy asoslarni belgilash va xalqaro majburiyatlarga rioya etish bo'yicha javobgarligini belgilaydi.

Tadqiqotchining fikriga ko'ra, huquqiy subyektlilik umumiy (barcha suveren davlatlarga xos), sohaviy (xalqaro huquqning muayyan sohalariga oid) va maxsus (xalqaro hamkorlikning alohida jihatlari bilan bog'liq) bo'lishi mumkin. Xalqaro huquqda subyektlarning huquq layoqati va muomala layoqati o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, bunga yagona tushuncha sifatida qaraladi.

Davlatlarning xalqaro investitsiya munosabatlaridagi huquqiy layoqati ularning huquq va majburiyatlarga ega bo'lish, shartnomalar tuzish, chet el investitsiyalarini tartibga solish va himoya qilish qobiliyatidan iborat. Davlatlar *ipso facto*, ya'ni mavjudligi tufayli huquqiy layoqatga ega bo'ladi. Biroq to'liq xalqaro huquqiy subyektlilik nafaqat huquq, balki muomala layoqatini, ya'ni o'z huquqlarini amalga oshirish va majburiyatlarini bajarish qobiliyatini ham talab etadi. Buning uchun xalqaro miqyosda tan olinish va xalqaro shartnomalarda faol ishtirok etish zarur. Investitsiya sohasida davlatlar ikki tomonlama investitsiya shartnomalarini tuzadi, investorlarni himoya qilish uchun milliy qonunchilikni ishlab chiqadi, xalqaro arbitrajlarda qatnashadi va xalqaro investitsiya standartlarini shakllantirishga ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro huquqiy subyektliligining muhim jihati – delikt qobiliyati, ya'ni davlatning noqonuniy ekspropriatsiya yoki kamsituvchi choralar kabi investitsiya majburiyatlarini buzganlik uchun javobgarligidir.

Dissertatsiyaning "**Xalqaro huquqda investorlarning huquq va majburiyatlarini ta'minlashning dolzarb muammolari**" deb nomlangan ikkinchi bobida davlatlarning suveren huquqlarini hisobga olgan holda xalqaro miqyosda investitsiya munosabatlarini tartibga solishning umumiy huquqiy mexanizmi ko'rib chiqiladi. Unda investorlar huquqlariga rioya qilish va ular tomonidan majburiyatlar bajarilishining asosiy muammolari ajratib ko'rsatiladi, shuningdek, xalqaro huquq doirasida ularni himoya qilish va amalga oshirish mexanizmlari tahlil qilinadi.

Davlat suvereniteti xalqaro huquqning asosiy tamoyili hisoblanib, uning mustaqilligini va ichki hamda tashqi jarayonlarni mustaqil boshqarish qobiliyatini ta'minlaydi. Klassik huquq nazariyasida u mutlaq va cheklanmagan deb qaralgan, biroq bugungi globallashuv va xalqaro iqtisodiy hamkorlik sharoitida davlat suvereniteti tobora ko'proq muayyan cheklovlarga duch kelmoqda.

Shunday qilib, amerikalik olim Stiven D. Krasner suverenitetning to'rt jihatini ajratib ko'rsatadi:

- 1) mamlakat ichidagi siyosiy va iqtisodiy hokimiyatni nazorat qilish bilan bog'liq bo'lgan ichki suverenitet;
- 2) davlatning chegaralararo oqimlarni (masalan, investitsiyalarni) nazorat qilish qobiliyatini aks ettiruvchi o'zaro bog'liqlik suvereniteti;
- 3) davlatlarning xalqaro huquqning teng subyektlari sifatida tan olinishini ta'minlovchi xalqaro-huquqiy suverenitet;
- 4) davlatning ichki ishlariga tashqi subyektlarning aralashuvini taqiqlovchi "Vestfaliya" suvereniteti²⁴.

Davlat suvereniteti va xalqaro majburiyatlar o'rtasidagi munosabat masalasi ilmiy munozaralarga sabab bo'lmoqda. Doktrinada ikki qarama-qarshi nuqtayi nazar mavjud. Birinchi nuqtayi nazarga ko'ra, xalqaro shartnomalar davlat suverenitetini cheklaydi, chunki ular davlatga yuridik majburiyatlar yuklaydi va uning harakat erkinligini toraytiradi. Xuddi shunday fikr "O'zbekistonda investitsion nizolarni hal qilish tizimini takomillashtirish"²⁵ nomli tahliliy ma'ruzada ham bildirilgan. Unda ta'kidlanishicha, investitsiyalarni jalb qilayotgan mamlakatlar sud daxlsizligi va bir tomonlama iqtisodiy choralar ko'rish huquqidan voz kechib, o'z suverenitetini ongli ravishda cheklashga kirishadilar. Ushbu g'oyalar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy sharoitlarda davlatlar nafaqat ichki mustaqillikni, balki xalqaro me'yorlarni ham hisobga olishga majbur, bu ayniqsa investitsiya sohasida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi nuqtayi nazar shundan kelib chiqadiki, xalqaro shartnomalar davlat suverenitetini cheklamaydi, aksincha, uni amalga oshiradi. Xususan, I.I. Lukashuk shartnoma tuzish suverenitetni kamaytirmasdan, balki davlatga uni amalga oshirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar berishini ta'kidlaydi²⁶. N.N. Paliyenko ham shunga o'xshash pozitsiyani egallab, xalqaro shartnoma suverenitetni kamaytirmasdan, balki davlatning o'z zimmasiga olgan majburiyatlariga rioya qilish bo'yicha yuridik mas'uliyat yuklashini qayd etadi.

Muallifning fikricha, davlat suverenitetiga miqdoriy o'lchov bilan belgilanmaydigan sifat kategoriyasi sifatida qaralishi lozim. Bu nuqtayi nazardan davlat suvereniteti va suveren huquqlar tushunchalarini farqlash muhim ahamiyatga ega. Investitsiyalarni himoya qilish va rag'batlantirish sohasidagi xalqaro shartnomalarni imzolash suverenitetning kamayishini emas, balki uning amalga oshirilishini anglatadi. Davlat o'z ixtiyori bilan xalqaro majburiyatlarni zimmasiga

²⁴ Правовые проблемы определения и реализации государственного суверенитета на современном этапе: монография / под ред. А.К. Сквикова, И. В. Яковюка. — М.:, 2010.

²⁵ Аналитический доклад "Совершенствование системы разрешения инвестиционных споров в Узбекистане". Авторский коллектив. Руководитель группы: Ф. Ризаев. Ташкент, 2008. С. 32.

²⁶ Ушаков Н. А., Международное право: Учебник. – Москва: Юристъ, 2003.

olish orqali o'zining suveren huquqlarini ro'yobga chiqaradi, jumladan, chet el investorlariga xalqaro arbitrajga murojaat qilish imkoniyatini taqdim etadi.

“Xalqaro sud organlari va arbitrajlarda xalqaro investitsiya munosabatlari subyektlarining manfaatlarini ta'minlash muammolari” deb nomlangan ikkinchi paragrafda investorlar nizolarni hal etishda duch keladigan asosiy to'siqlar ko'rib chiqiladi. Xalqaro investitsiya nizolari qabul qiluvchi davlatning ichki qonunchiligi hamda arbitraj jarayonlari va diplomatik himoyani o'z ichiga olgan xalqaro mexanizmlar bilan tartibga solinadi. Investorlar huquqlarini samarali himoya qilish masalasi, ayniqsa, ularning mulki musodara qilinganda yoki davlat tomonidan boshqa tarzda huquqlari buzilganda, dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bunday nizolarni hal qilishning asosiy usullari majburiy choralar (sud va arbitraj) hamda ixtiyoriy mexanizmlar (muzokaralar, vositachilik, yarashuv) hisoblanadi. Maxsus xalqaro shartnoma mavjud bo'lmagan hollarda diplomatik himoya qo'llanishi mumkin, biroq xalqaro huquq dastlab huquqiy himoyaning ichki vositalaridan to'liq foydalanishni talab etadi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, investorlar ko'pincha qabul qiluvchi davlatning milliy sudlariga siyosiy ta'sir ehtimoli tufayli ishonch bildirmaydilar. Shu bois, ikki tomonlama investitsiya shartnomalarining ahamiyati ortib, investorlarga xalqaro arbitraj organlariga murojaat qilish imkoniyatini taqdim etadi. Investitsiya nizolarini tartibga solishda 1965-yilgi Vashington konvensiyasi muhim o'rin tutadi. U Investitsiya nizolarini hal qilish bo'yicha xalqaro markazni ta'sis etib, investorlarni siyosiy xavf-xatarlardan va ularning huquqlari buzilishidan himoya qilishni ta'minlaydi. Biroq markazning vakolati cheklangan: nizo tomonlari konvensiya ishtirokchilari bo'lishi, nizoning o'zi esa *ratione personae* va *ratione materiae* mezonlariga mos kelishi shart. Davlat konvensiya ishtirokchisi bo'lmagan hollarda nizolarni hal qilishning muqobil yo'llari mavjud bo'lib, ularga Nyu York konvensiyasi va boshqa xalqaro shartnomalarda nazarda tutilgan arbitraj jarayonlari kiradi. Shunday qilib, investitsion nizolarni hal etishning xalqaro amaliyoti investorlar huquqlarini himoya qilishning milliy, xalqaro va shartnomaviy mexanizmlarini o'z ichiga olgan kompleks yondashuvni namoyon etadi.

Bundan tashqari, Seul konvensiyasiga ko'ra, Investitsiyalarni kafolatlash bo'yicha ko'p tomonlama agentlik va investitsiyalarni qabul qiluvchi davlat o'rtasidagi nizolar, avvalo, muzokaralar bosqichidan o'tishi, kelishuv bo'lmagan taqdirda esa arbitrajga topshirilishi lozim. Bu holat investitsiya sohasida xalqaro arbitrajning muhimligini yana bir bor ta'kidlaydi. Biroq bunday organlar qarorlarini tan olish va ijro etish milliy qonunchilikning xalqaro shartnomalar bilan muvofiqligi darajasiga bog'liq bo'lib, bu ba'zan huquqni qo'llash amaliyotida qiyinchiliklarga sabab bo'ladi. Investitsiyalarni xalqaro himoya qilish tizimi investitsiya bitimlarining huquqiy noaniqligi tufayli tanqidga uchramoqda. Bu holat keng talqin imkoniyatlarini yaratib, davlatlarning tartibga solish vakolatlarini cheklaydi. Shuningdek, ziddiyatli arbitraj qarorlari sonining ortishi kuzatilmoqda, bu esa investitsiya huquqining parchalanishiga olib kelib, uning bashorat qilinishini qiyinlashtirmoqda. Ko'pincha arbitraj mexanizmlari investorlar manfaatlarini himoya qilishga haddan ziyod yo'naltirilgani, davlat manfaatlari va uchinchi shaxslar huquqlarini kamsitishi, shuningdek, sud jarayonlarining yetarlicha shaffof

emasligi haqida xavotirlar bildirilmoqda. Davlatlar va yirik korporatsiyalarning ish natijasiga ta'sir ko'rsatishi ehtimolini hisobga olgan holda hakamlarning mustaqilligi ham muhim muammo bo'lib qolmoqda. Siyosiy omillar ham o'z rolini o'ynaydi, chunki qabul qiluvchi mamlakatlardagi beqarorlik arbitraj qarorlarini ijro etish samaradorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday sharoitda davlatlar xalqaro arbitraj institutlarini mustahkamlash va huquqiy tartibga solishni yagona tizimga keltirish orqali investitsiyalarni himoya qilish tizimiga bo'lgan ishonchni oshirish hamda tomonlar manfaatlarining muvozanatini ta'minlashga intilmoqda.

Asosiy ko'p tomonlama hujjatlar 1965-yilgi Vashington konvensiyasi, 1985-yilgi Seul konvensiyasi va 1994-yilgi Energetika xartiyasi to'g'risidagi shartnoma hisoblanadi. Shuningdek, TRIMS, GATS va TRIPSni o'z ichiga olgan GATT/JST kelishuvlari ham muhim ahamiyatga ega. Biroq xorijiy investitsiyalar sohasida yagona xalqaro hujjatning yo'qligi huquqiy noaniqlikka olib kelmoqda va investorlarni samarali himoya qilishga to'sqinlik qilmoqda. IHTT homiyligida Investitsiyalar bo'yicha ko'p tomonlama bitimni (IKB) ishlab chiqish huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etishga hamda xalqaro va milliy tartibga solish me'yorlarini muvofiqlashtirish maqsadiga qaratilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Xalqaro huquqda investorlarning huquq va majburiyatlarini ta'minlashni rivojlantirish istiqbollari”** deb nomlangan. Uning birinchi paragrafida ikki tomonlama va ko'p tomonlama investitsiya bitimlarining rivojlanishi ko'rib chiqiladi.

Xalqaro huquqda ikki tomonlama va ko'p tomonlama investitsiya bitimlarining rivojlanishi chet el investitsiyalarini himoya qilish va tartibga solishning huquqiy asosini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ikki tomonlama investitsiya shartnomalari investorlarga siyosiy xatarlardan, jumladan, mulkni davlat ixtiyoriga o'tkazishdan himoyalani va xalqaro arbitrajga murojaat qilish imkoniyatini beruvchi keng tarqalgan vositaga aylandi. Ularning paydo bo'lishi xalqaro kapitalning o'sishi va davlatlarning qulay investitsiya muhitini yaratishga intilishi bilan bog'liq. Bunday shartnomalarning dastlabkilari XX asr o'rtalarida tuzila boshlagan bo'lib, rivojlanayotgan mamlakatlarning mustaqillikka erishishi bilan ularning soni sezilarli darajada ko'paydi. Keyinchalik investitsiyalarni himoya qilishning ko'p tomonlama tizimi, shu jumladan, maxsus konvensiyalar ham vujudga keldi. Zamonaviy investitsiya bitimlari davlatlar va investorlar manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni o'rnatib, adolatli va teng huquqli rejim, eng ko'p qulaylik yaratish tartibi hamda kapitalni erkin o'tkazish kafolatlari kabi asosiy tamoyillarni mustahkamlaydi.

Farxutdinov I.Z. ta'kidlaganidek, ikki tomonlama investitsiya bitimlari investorlar uchun bashorat qilinadigan huquqiy muhitni yaratishga qaratilgan eng muhim huquqiy tartibga solish vositasi hisoblanadi. Ularning asosiy maqsadi, ayniqsa, iqtisodiy inqirozlar sharoitida investitsiya jarayonining barqarorligini va kapitallarning erkin harakatini ta'minlashdan iborat. Investitsiyalarni siyosiy xatarlardan himoya qilishga alohida e'tibor qaratiladi, bu ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun muhim ahamiyatga ega. Ikki tomonlama investitsiya bitimlari davlatlarga umumiy tamoyillarni o'z milliy sharoitlariga moslashtirish va hamkorlikning noyob mexanizmlarini yaratish imkonini beradi.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Rossiya, Qozog'iston, Belarus, Avstriya, Bolgariya va Janubiy Koreya kabi davlatlar bilan 52 taga yaqin shunday bitimlar tuzgan. Investitsiyalarni tartibga solishda soliq to'siqlarini bartaraf etadigan va biznesni samarali yuritishga ko'maklashadigan, ikki tomonlama soliqqa tortishning oldini olish to'g'risidagi kelishuvlar ham muhim rol o'ynaydi. Ikki tomonlama investitsiya bitimlari investor va qabul qiluvchi davlat o'rtasida (masalan, ekspropriatsiya va kompensatsiya masalalari bo'yicha) hamda bitimlarni talqin qilish bo'yicha davlatlar o'rtasida yuzaga keladigan nizolarni hal etish to'g'risidagi qoidalarni o'z ichiga oladi. Xalqaro huquqqa ko'ra, davlatlar chet el investitsiyalari uchun shartlarni belgilashda suveren huquqqa ega, biroq ikki tomonlama investitsiya bitimlari investorlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini, shu jumladan, xalqaro arbitrajni rasmiylashtiradi va mustahkamlaydi.

Yevteyeva S.M. ta'kidlaganidek, rasmiy jihatdan simmetrik bo'lishiga qaramay, ikki tomonlama investitsiya bitimlari ko'proq investorlar manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirilgan bo'lib, ularga o'ziga xos majburiyatlar yuklamaydi. Bunday shartnomalar asosiy kafolatlar sifatida investorlar uchun rejim o'rnatish, mulkni davlat ixtiyoriga o'tkazish qoidalari, kompensatsiya kafolatlari va nizolarni hal etish mexanizmlarini o'z ichiga oladi.

Hozirgi kunda dunyoda 2500 dan ortiq ikki tomonlama investitsiya shartnomalari amal qilmoqda. Ikki tomonlama investitsiya bitimlaridan tashqari, uch va undan ortiq mamlakatlar o'rtasida tuziladigan ko'p tomonlama investitsiya bitimlari ham mavjud. Ular xalqaro miqyosda investitsiyalash qoidalarini uyg'unlashtirishga qaratilgan. Investitsiyalarni ko'p tomonlama tartibga solishda Brettonvuds bitimlari asosida tashkil etilgan Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) va Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB) kabi tashkilotlar muhim hissa qo'shgan. Keyinchalik transmilliy kapitallar harakatini tartibga solish Yevropa iqtisodiy hamjamiyati (YIH) va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) doirasida rivojlanib, xalqaro investitsiya me'yorlarini takomillashtirishga xizmat qildi.

Dissertatsiyada xalqaro huquqda investorlarning huquqlarini himoya qilish va majburiyatlarini tartibga solish asosan davlatlar o'rtasida tuziladigan ikki va ko'p tomonlama investitsiya shartnomalari orqali amalga oshiriladi, degan xulosaga kelingan. Bu shartnomalar xorijiy investitsiyalar uchun barqaror huquqiy asos yaratib, mulkni musodara qilishdan himoyalash kafolatlarini hamda nizolarni hal etish mexanizmlarini va kamsitmaslik tamoyillarini belgilaydi. Shu bilan birga, investitsiyalarni qabul qiluvchi davlatlar investorlar uchun qulay sharoitlarni ta'minlash majburiyatini oladi, kapital eksport qiluvchi davlatlar esa o'z investorlarini chet elda himoya qilishni kafolatlashga intiladi. Demak, davlat va investorlar manfaatlarini muvozanatini ta'minlaydigan huquqiy mexanizmlar moslashuvchan bo'lishi, davlatlarga jamoat manfaatlarini himoya qilish, investorlarga esa o'z sarmoyalari xavfsizligi uchun yetarli kafolatlar olish imkonini berishi lozim.

XULOSA

Bugungi xalqaro vaziyat sharoitida investorlarning huquq va majburiyatlarini himoya qilish muammolari tobora dolzarb tus olmoqda. Yuqorida aytilganlar bilan bog'liq ravishda maxsus ilmiy tadqiqot o'tkazishning ahamiyati ham ortib bormoqda.

“Xalqaro huquqda investorlarning huquq va majburiyatlarini ta'minlash: dolzarb muammolar va rivojlanish istiqbollari” mavzusidagi tadqiqot ishi davomida bir qator ilmiy-nazariy xulosalarga kelindi hamda amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1. Xalqaro investitsiya huquqi xalqaro investitsiya munosabatlarini tartibga soluvchi mustaqil huquq sohasi hisoblanadi. Bu xorijiy investorlarni himoya qilish bo'yicha davlatlarning huquq va majburiyatlarini qamrab olgan o'ziga xos tartibga solish predmeti, shuningdek, investitsiyalarning huquqiy asoslarini belgilovchi maxsus tamoyillar va normalar bilan tasdiqlanadi. U milliy huquqiy tizimlar va xalqaro huquq normalarini o'zida mujassam etgan bo'lib, bu uning nizolarni hal etish va investitsiya faoliyati ishtirokchilarining huquqlarini himoya qilishga yo'naltirilgan kompleks xususiyatini ta'kidlaydi.

2. Boshqa sohalardan farqli o'laroq, xalqaro investitsiya huquqi markazlashmaganlik xususiyatiga ega, chunki yagona ko'p tomonlama shartnoma yoki markaziy xalqaro tashkilot mavjud emas. U turli manbalarga, jumladan, ikki tomonlama va mintaqaviy bitimlarga, milliy qonunchilikka, xalqaro urf-odatlariga, arbitraj qarorlariga va investitsiya shartnomalariga asoslanadi.

